# Nazariya va amaliyot: malakali muzeyshunos kadrlar tayyorlash

Joriy yil 28-fevral kuni O’zR FA O’zbekiston tarixi davlat muzeyida O’zR Badiiy akademiyasi Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institutining Muzeyshunoslik kafedrasi filiali ochilishiliga bag’ishlangan tadbir bo’lib o’tdi. Unda Muzey xodimlari, Institut professor-o’qituvchilari, talabalar ishtirok etdi.

Muzeyshunoslik kafedrasi filialining O’zR FA O’zbekiston tarixi davlat muzeyida ochilishi muzeyshunos kadrlarni tayyorlashda nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog’lash, xususan, muzey restavratsiya laboratoriyasidagi jarayonlar bilan yaqindan tanishish, muzey fond zahiraxonasiga oid hujjatlar bilan ishlash, ekspozitsiya yaratish jarayonlarini o’rganish, shu bilan birga, muzey xodimlarini ilmiy faoliyatga yo’naltirish, ta’lim tizimida sohaga kirib kelayotgan islohotlar bilan tanishtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, san’at asarlarini muzeylar fondiga to’plash, konservatsiya va restavratsiya qilish, ularni tomoshabinga namoyish etish masalasi muzey xodimlaridan nazariy va amaliy ko’nikmalarni talab etadi.

Aytish kerakki, Muzeyshunoslik kafedra filialining ochilishi bu sohaga yetuk malakali kadrlar tayyorlash borasidagi muhim qadamlardan biri sanaladi.